



O'zbek Milliy San'atini Targ'Ibotchisi Lola Abdullayeva Ijodi

Kamoladdin Niyazov Sedametovich

Urganch davlat universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Surayyo Safasheva Sodikovna

Urganch davlat universiteti, "San'at" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Musavvir ko`z ko`rib turgan moddiy olamni ijodiy tasavvurida qayta ishlab, tekislikda tasvirlaydi. Bo`yoqlar, chiziqlar va ular aralashmasidan foydalanib, dunyoning barcha manzaralarini aks ettiradi, uning markazida esa inson turadi. Musavvirlarimiz yaratgan har bir asarida muallif ichki ruhiy olami, dunyoqarashi, hayotga bo`lgan, atrofdagilarga bo`lgan munosabati yotadi. O`quvchi bu asarlarni ko`rib ma`naviy ozuqa oladi. O`qituvchi mo`yqalam sohiblarining asarlarini tanishtirish mobaynida o`z o`quvchisi qalbida hayotga, ota - onaga, ustozlarga bo`lgan mehr-muhabbatini oshiradi


Kalit so'zlar: "Layli va Majnun", "Oq nilufar", "Bahor", "Tog` qizi", "Ma'rifikat qurbanlari", "Paranji sirlari", "Guli siyoh", "Navoiy", "Hamlet", "Muhabbat qo'shig'i", "Gamlet", "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Toshbolta oshiq"

San'at yosh avlodda nafosatni tarbiyalovchi vosita. Azal azaldan san'at shunday vazifani ado etib kelgan. Jumladan, tasviriy san'at sohasiga ham shu nuqtai nazardan diqqat e'tibor qaratilishi bejiz emas. yosh avlod Vatanga mehru sadoqat ruhida tarbiyalashda tasviriy san'atning ham roli katta. Xalqimiz tasviriy san'at merosi an'analarini o'zlashtirib, zamona ruxiyatiga, xarakteriga mos ravishda davom ettira olish xar qanday musavvirliga ham nasib etavermaydi «Xayotda o'z qo'shagini topa olgan, uni qaytarilmas oxangda ko'pchilikka manzur qilib kuylay olgan san'atkorni baxtli desa bo'ladi», deb ta'kidlagan edi taniqli rassom O'rol Tansiqboev¹. Rassom Lola Abdullayeva hayoti va ijod yulida O'.Tansikboev ta'kidlaganidek, nafaqat o'z ovoziga, balki baxtiga ham erishgan ustoz san'atkor darajasiga ko'tarildi. Lola Abdullayeva taniqli rangtasvir ustasi, o'z fikr va g'oyalariga ega bo'la olgan talantli rassomdir. Uning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, davr ruhi, davr kayfiyati, quvonchiyu tashvishlari namoyon bo'layotganini ko'ramiz.

Lola Abdullayeva rangtasvir san'atining ko'pgina janrlariga dadil murojaat qila olgan rassom sifatida ajralib turadi. Bu o'rinda ayniqsa tematik kompozitsiyalar, manzara, natyurmort, portret janrlaridagi faoliyatlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston tasviriy san'ati o'zining yangicha shakllanish davriga astasekin kirib kela boshladi.

Asosan bu davrga Ovruponing ilg'or tasviriy san'ati an'analarini rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali o'z ta'sirini o'tkazdi. Ovrupo davlatlarida ancha ilg'orlab ketgan uch

¹ N.Oydinov. Ajdodlarimiz san'ati va e'tiqodi. Toshkent." O'qituvchi" 1992 y



o'chamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan bu tasviriy san'at aynan usha davrlarda bizning o'lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san'atga ixlosmand ilg'or vakillari esa ko'proq xalq amaliy bezak san'ati bilan mashg'ul bo'lganlar².

Har bir tarixiy davrning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lganidek, bu davr ham shunday jihatlardan holi emas edi. O'lkamiz tarixining ana shu pallasida ham rus va boshqa xalq vakillarining ta'siri tasviriy san'atni har tomonlama ravnaq topishi uchun alohida ahamiyat kasb etdi. Asta, sekin mahalliy an'analar bilan uyg'un rivojlangan tasviriy san'atimiz rivojiga Lola Abdullayeva singari rassomlar katta hissa qo'shishdi.

Taniqli teatr rassomi - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Lola Abdullayeva 1918-yilning 13-aprelida Toshkentda ziyoli oilada dunyoga kelgan.

Lola Abdullayevaning otasi Abdulla ota mohir tabib bo'lgan. Ular nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham bilishgan, onasi fors tilida huddi o'z ona tilidek gaplasha olgan. Lola 4-5 yoshlarida qo'liga qalam olib rasmlar chizishni boshlagan, lekin otasi diniy tarafdan to'g'ri kelmaganligi tufayli chizishni taqilagan. Shuning uchun u ba'zan qishloqdagi qoya toshlarga rasm chizib kelgan. Katta bo'lgach uning chizishga bo'lgan ishtiyoqi rassomchilik bilim yurti tomon yetaklagan.

1934 -38-yillarda Toshkent rassomlik bilim yurtida ta'lim olgan. O'z kasbining ustasi bo'lib yetishgan teatr rassomi Lola Abdullayeva "Gamlet", "Tohir va Zuhra", "Farxod va Shirin", "Toshbolta oshiq" kabi ko'plab mashxur teatr tomoshlarari uchun sahna bezaklari ishlagan. U juda sabr-toqatli, o'z ishiga puxta, mohir bo'lgan-ki, bunda oldin pape-mashe va boshqa texnikalar yordamida eskizlar taylorlab, keyin katta ishga qo'l urgan. Hozirgi aksariyat rassomlar eskiz chizishga erinishadi, bu esa ishning sifati pastligiga sabab bo'ladi.

Lola Abdullayeva teatr rassomchilagini rivojlantirish borasida Olma otadagi qozoq drama teatrida, so`ng Bishkekdagagi teatrda rassom vazifasida ishladi.

Abdullayeva 1948 –79-yillarda Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat Davlat musiqali drama va komediya teatri bosh rassomi bo'lib ishlagan.


Uning "Layli va Majnun", "Oq nilufar", "Bahor", "Tog' qizi", "Ma'rifat qurbanlari", "Paranji sirlari", "Guli siyoh", "Navoiy", "Hamlet", "Muhabbat qo'shig'i" va boshqa spektakllar uchun tayyorlagan sahna bezaklari va libos eskizlari milliy bo'yoqlarining o'ziga xosligi, shuningdek, tomoshabinga asar mazmunini aniq va ravshan qilib yetkazishga yordam berishi bilan ajralib turadi.

U teatrda sahnalashtirilgan barcha spektakllar va teatrlashtirilgan dasturlarning sahnaviy bezagi va aktyor obrazidagi liboslarining bezak ishlarini yaratib bergen. Mahoratli rassom Lola Abdullayeva o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini targ'ib qilish va teatr sahnasida yoritishda astoydil ijod qilgan fidoyi inson.

Uning spektakllarga yaratgan dekoratsiyalari, eskizlari yetuk ma'noli ijodlar bo'lib hisoblanadi. U ijodiy faoliyati davomida yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol insonlar etib tarbiyalashni asarlarida yoritishga harakat qilgan.

Rassomlik "tilsiz" san'atdir. Bu ko'ngil amri, rassomning asarlari esa, uning akslaridir. Rassom uchun uning ijodi, asarlari gapiradi. Bu ko'proq sirga o'xshaydi. Chunki, gohida o'zingiz ham bilmay qolasiz, birdaniga nimalardir keladi, chizib bo'lganingizdan keyin o'zingiz ham

² Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent: Fan. 2007 y. 86 b.



tushunasiz nima qilganingizni... Nimadir paydo bo‘ladi. Qiziq narsa-da. Bu ta’sir liboslarda, joy-tasvirlarda seziladi.

Biz bilan suhbatda bo‘lgan rassomning nabirasi Svetlana opa rassom buvisi Lola Abdullaevaning chizayotgan asarini tugallamagunicha oila a’zolarini birortasini o‘z ijodxonasiga kiritmaganligini, yaratgan har bir asarini xuddi farzadidek asray-avaylagini, hech bir suratni sotishga yo‘l qo‘ymaganligini, bir kuni shogirdlari tomonidan ko‘rgazmaga olib ketilgan suratlarni saqlash holatini ko‘rib xafa bo‘lib qaytganligini eslab, rassomning “Jannatmakon o‘lkam qiyofasi xuddi jannatning yerdagi aksi singari mening asarlarimdan ufurib turadi. Ammo, asarlarimdagи asosiy qahramonim bu - inson. Men uchun eng qizig‘i shuning o‘zidir...” deb aytganligini so‘zlab berdi.

Xulosa o’rnida, shuni aytish kerakki, xar bir narsani o’rganish Vatanni sevishdan boshlanadi. Serquyosh o‘lkamizning go’zalligini, Lola Abdullayeva ana shu yusinda mohirona tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Oydinov. Ajdodlarimiz san’ati va e’tiqodi. Toshkent.” O’qituvchi” 1992 y.
2. Abdullayev. O’zbekiston san’ati tarixi. Toshkent: Fan. 2007 y. 86 b.